



UDK:101.3

Zafarbek KARIMOV,
Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: kzafarbek727@gmail.com

Prof, M. Xajiyeva taqrizi asosida

INSON TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM FALSAFASINING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi, ta'lim falsafasining inson tafakkuriga ta'siri, uning dunyoqarashi shakllanishidagi o'rni haqida so'z boradi. Shu bilan birgalikda, zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda talabalarining bilim olish jarayonining sifati hamda samaradorligini oshirish usullari nazariy asoslangan holda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim falsafasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, inson kapitali, ta'lim modellari, sotsiologumanistik, gnoseologik, etnodidaktik meros, etnopedagogika.

РОЛЬ ФИЛОСОФИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается взаимосвязь между образованием и воспитанием, влияние философии образования на мышление человека и её роль в формировании мировоззрения. Также теоретически обоснованы методы повышения качества и эффективности процесса получения знаний студентами на основе современных образовательных технологий.

Ключевые слова: Философия образования, современные педагогические технологии, профессиональная компетенция, человеческий капитал, образовательные модели, социогуманитарный подход, гносеология, этнодидактическое наследие, этнопедагогика.

THE ROLE OF THE PHILOSOPHY OF EDUCATION IN SHAPING HUMAN THINKING

Annotation

This article discusses the interrelationship between education and upbringing, the influence of the philosophy of education on human thinking, and its role in the formation of worldview. Furthermore, it theoretically substantiates methods for improving the quality and efficiency of students' knowledge acquisition processes based on modern educational technologies.

Key words: Philosophy of education, modern pedagogical technologies, professional competence, human capital, educational models, sociocultural and humanistic approach, gnoseology, ethnodidactic heritage, ethnopädagogy.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya alohida tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin, biroq ular o'rasidagi birlikni, ya'ni inson va ta'lim muamosini, tarbiya jarayonlari mohiyati va inson tafakkuriga, idealiga ta'sirini unutmashlik zarur. Ta'lim va madaniyat (ta'lim falsafasi sotsiologumanistik va ijtimoiy –madaniy voqelikdir) gumanistik ahamiyati tufayli falsafiy ahamiyat kasb etadi, jamiyat talab etadigan funksiyalarni bajaradi. Falsafa fanlari doktori, professor A.A.Korolkovning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya ekstravertiv, ya'ni boshqa "men"larga qaratilgani, ijtimoiy mohiyati kishilarga, yon-atrofga pozitiv ta'sir etgani tufayli falsafiydir. Biroq bu jihat o'zidan o'zi shakllanmaydi, subyekt-obyekt o'rtasidagi munosabatlarning didaktik mohiyati, yo'naltirilgani va ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani tufayli falsafiydir [1]. Ushbu falsafiylik quyidagi yo'nalishlarda mujassam bo'lganligi uchun alohida to'xtalishni maqsadga muvofiq deb bildik.

1. Ta'lim falsafasi inson ongi, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan. Uning mazkur vazifasi boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar (pedagogika, tarix, adabiyotshunoslik, siyosatshunoslik, yurisprudensiya)ga yaqin. Ammo ta'lim falsafasi

sotsiopedagogik jarayonlar va tajribalarni metafizik pog'onada umumlashtiradi, inson va tarbiya, ta'lim, sub'ekt va ob'ekt, ular o'rtasidagi munosabatlarning onga yo'naltirilganini, shaxs sifatlari va fazilatlarining milliy, ijtimoiy va umukminsoniy xarakterini o'zida mujassamlashtirganini tahlil qiladi. Bu tahlillar turli pog'ona va turli konsepsiyalar nuqtai nazarini ifoda etadi, natijada fikrlar, yondashuvlar plyuralizmi, ta'limning demokratik xususiyati namoyon bo'ladi. Masalan, shaxs va ta'lim tizimini olaylik. SHaxs o'zining sotsial, demografik, fiziologik, intellektual, professional jihatlari bilan ta'limga turli talablar qo'yadi. Sotsiopedagogika nuqtai nazaridan olib qaraganda ta'lim-tarbiya shaxs talablariga, qiziqishlariga qurilishi, bu munosabatlarda shaxs birlamchi bo'lishi kerak. Bunday gumanistik yondashuv e'tiroz uyg'otmaydi. Biroq u ta'lim tizimi rolini inkor qilishi mumkin emas. Bu tizim asrlar davomida shakllangan, u o'zining institutsional va funksional vazifalari nuqtai nazaridan shaxs qiziqishlardan keng. Unga barqarorlik, uyushganlik va boshqarishga moyillik xos. Bog'cha, maktab, gimnaziya, litsey, institut, universitet, doktorantura, uzluksiz ta'lim tizimlari mavjudki, ular o'zining institutsional tashkil etilgani bilan shaxs

qiziqishlarini o'ziga bo'ysundiradi. Bu o'rinda uyushmaganlik va uyushganlik, anglanmaganlik va anglanganlik, individuallik va ijtimoiylik kabi ikki tomonlar mavjudki, ularni har doim murosaga keltirib turish zarur bo'ladi. Bu ko'pincha pedagogika, ta'lim jarayonlaridan tashqaridagi tashkiliy vazifalardir.

2. Ta'lim falsafasi insonning gnoseologik qiziqishlarini oshirishi bilan o'zining asosiy funksiyasini bajaradi. Ta'limning ushbu funksiyasi avvalo maktab, keyin universitet tizimiga yuklatilgan. Shuning uchun ham ta'lim falsafasiga oid tadqiqotlarda e'tibor ushbu ikki izimga qaratiladi. Oila, bog'cha, maktabdan tashqari muassasalar, turar joylardagi ta'lim markazlari ana shu ikki tizimga qo'shimcha, yordamchidir. Gnoseologiya insonning bilimi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganadigan ilm sohasidir. Gnoseologik qiziqish esa insonning ilmiy bilimlarga bo'lgan qiziqishlarini ifoda etadi. Tajriba ko'rsatadiki, gnoseologik qiziqish ilm- fan sohaslarini o'zlashtirish, mavjud ilmiy qarashlardan bahramand bo'lib, izlanishlariga ratsionallik baxsh etishga intilishdir[2]. Shunday ekan, bilishning ratsional bilan bog'liqligi boshqa bilish turlari (emotsional, transsendental, irratsional) dan uni farqlab turadi. Bilishga qiziqishni shakllantirish ta'lim nazariyasining vazifasi, u asosan kuzatish, tahlil, sinov kabi metodlar natijasi hisoblanadi. Ilmiy kuzatish oddiy kuzatishdan farq qiladi, u ma'lum bir ilmiy-ratsional metodlarga tayanadi. "Iliylik echiladigan va echish mumkin bo'lan ijtimoiy muammolarga diqqatni qaratadi. Echish mumkin bo'lmagan tadqiqotlar, izlanishlar yo sxolastik xususiyatga ega bo'ladi yoki gipotetik, utopik. Ilm-fan esa tadqiqotchilarni echish mumkin bo'lgan muammolarni o'rganishga da'vat etadi. Aslida nazariy echilmaydigan muammo yo'q, biroq bu duch kelgan voqelik ham tadqiqot mavzusi yoki maqsadi bo'lishi mumkin, degan fikrga olib kelmaydi. Ilmiy konsepsiya, mavzu, tadqiqot maqsadi va vazifalari ob'ektning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi ziddiyatlardan kelib chiqishi lozim" [3]. Taniqli tadqiqotchi, moliyaviy xodim N.N.Taleb hayotdagi tasodifiy narsalarni, kutilmagan inqirozlar va jarayonlarni "Qora Oqqush" deb atagan edi. Uning shov-shuvlargap sabab bo'lgan kitobi "The Black Swan on bobustness and fragility the bed of Procrustus" ("Черный лебедь. Под знаком непредсказуемости") ijtimoiy voqeliklarni bilish muammolariga bag'ishlangan bo'lsa-da, bu voqeliklar tasodifiylik natijasida ijtimoiy fikrni, ilmiy tafakkurni o'zgartirib yuborishi mumkinligini isbotlaydi. Bu bilan N.N.Taleb ilmiy bilish ham, u ratsionalga qanchalik ishonmasin va tayanmasin, tasodiflardan qochib ketolmaydi. Ilmiy bilishning kuch, qudrati ana shu tasodiflarni anglash, ratsional baholashdadir [4].

3. Ta'lim falsafasi kishiga o'zini va olamni anglashga o'rgatadi. "O'zingni bil" falsafaning qadimgi da'vati, pastulatidir. Bu da'vat negizida kishi olamni bilishdan avval o'zini bilishi kerak, degan fikr yotadi. Lekin ular uyg'un, o'zini bilgano'zgani, olamni biladi. Ta'lim falsafasi qanday tarzda kishiga o'zini va olamni bilishga o'rgatadi? Bu o'rinda ta'lim falsafasi didaktikaga, amaliy pedagogikaga aylanib qolmaydimi? Ha, shunday xavf mavjud. Biroq bu inson hayotiga, uning mavjudligiga qaratilgan xavf emas, u turli bahslar va yondashuvlar uyg'otuvchi sub'ektiv xavfdir. Turli bahslar va yondashuvlar esa inson tafakkuriga xos xislatdir. Ta'lim falsafasi insonning hayoti avvalo o'z tasavvurlariga muvofiq ekaniga ishontiradi. "Men fikrlayapman, demak, men mavjudman". Falsafada qaror topgan, hatto aksiomaga

aylangan mazkur pastulat insonga o'z mavjudligini ta'kidlaydi. Agar sen fikrlayapsan, demak, sen ongli mavjudot sifatida borsan, tiriksan, yashayapsan. Fikrlashdan to'xtaganingda sen mavjud emassan, ya'ni ongli mavjudot, inson emassan. Bu pastulat kishini ongli yashash mavjudlik negizi ekanini anglashga etaklaydi, ong – birlamchi. Ammo o'zingni bilish o'zgalarni, olamni bilish zarurligini rad qilmaydi. Har qanday ta'lim ushbu ikki tomon, ob'ekt orasidagi sir, ziddiyatlarni anglashga undaydi, etaklaydi. Ta'lim falsafasi esa bu sir, ziddiyatlarni axloq va axloqsizlik, bilim va bilimsizlik, go'zallik va xunuklik, oliyjanoblik va tubanlik, insoniylik va g'ayriinsoniylik kabi antinomiylar to'qnashuvlaridagi mohiyatdan qidiradi.

4. Etnodidaktik meros va etnopedagogik tajribalardan foydalanish ta'lim falsafasini sotsiomadaniy voqelikka aylantiradi, chunki madaniy voqelikka tadrijiylik, an'anaviy tajribalarga tayanish xos. Etnodidaktik meros va etnopedagogik tajribalar ajododlardan qolgan hayotiy o'gitlar, yashash tarziga o'rgatadigan fikrlar, naqlar, pand-nasihatlari, hikoyatlar va an'analaridir. B.R.Mendelyev fikriga ko'ra, ta'lim falsafasi quruq joyda shakllanmaydi, unda an'anaviy tajribalar va etnodidaktik o'gitlar, hatto konseptual ahamiyatga ega fikrg'oyalar mujassamdir. Bu tajribalar bir tomondan, tarixiy-madaniy meros, ikkinchi tomondan esa, inson tarbiyasiga, shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik va pedagogik vositalar kompleksidir [5].

Falsafada etnodidaktik merosga tayanish yoki etnopedagogik tajribalardan kelib chiqish har doim e'tirof etilavermasa-da, hech bir faylasuf ular ta'siridan chekkada yaratmagan, ijod qilmagan. Suqrot va Platonning dialoglari, etkalogik qarashlari o'z davrining, xalqining etnopedagogik mersiga tayanmasligi mumkinmi? Aytilishicha, "Platon o'limidan oldin tushida oqqushga aylanib, daraxtdan daraxtga uchib yurganini, qush ovlovchilar esa unitutulmay sarson ekanliklarini ko'radi. Suqrotning shogirdi bo'lmish Simmiy bu tushni ta'birlab, qush ovlovchilar o'tmishdagi daholarning fikrlarini sharhlovchi kimsalar ekanini, Platonning bir yo'la ham tabiiy, ham axloqiy, ham ilohiy sifatlarini jam etgan fikrlarini izohlashga ularni qurbi etmasligini aytadi"[6]. O'z davri illatlari bilan kurashgan Akosta, Spinoza, Kant, Feyerbax, Volter, Didro, J.J.Russo kabilarning falsafiy pedagogik qarashlarida etnopedagogik tajribalarga tayanish bo'rtib turadi. Lekin ularning hech biri ta'lim falsafasi haqida fikr bildirishmagan. I.Kant fakultetlar(tabiiy fanlar va falsafa fakulteti) bahsi to'g'risida o'z qarashlarini bayon qilgan, ammo ular ta'lim falsafasiga emas, balki universitet ta'lim tizimiga taalluqlidir.

5. Ta'lim falsafasining sotsiopedagogik vazifalari uni zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanishga undaydi. To'g'ri, ilmiy adabiyotlarda "texnologiya" atamasi va unga qo'yiladigan tablablar haqida turli, gohoqara-qarshi fikrlar mavjud. Nima uchun "texnologiya", dars emas, ta'lim emas? Ustozning o'rmini fizikadan olingan "texnologiya" so'zi bosadimi, jonli tarbiya endi eskirdimi? Texnologik jarayonlarnig samara berganini kim isbotlagan, sinab ko'rgan, axir u pedagogikaning bir vositasi- ku? Qaysi asoslarga ko'ra biz jonli tarbiyani texnik vositaga topshirishimiz, ustoz mas'ulligini jonsiz texnologik usullar bilan almashtirishimiz zarur?[7]. Ta'lim falsafasi ushbu savollarga javob izlaydi, ammo ularga javobni o'quv jarayonlari, kadrlar malakasi va darslarga bo'lgan qiziqishlar belgilaydi. Masalan, pedagoika fanlari doktori

N.Surtaevaning fikricha, pedtexnologiya avvalo insoniylik texnologiyasidir. U turli pog'onalarni o'z ichiga oladi: birinchi pog'ona – zamonaviy, innovatsion, noan'anaviy texnologiyalar; ikkinchi pog'ona – ayrim muammolar va mavzularni o'rganishga qaratilgan texnologiyalar; uchinchi pog'ona – turli sohalar, dissiplinalardagi texnologiyalar; to'rtinchi pog'ona – o'qitish va rivojlantirish texnologiyalari; beshinchi pog'ona – ta'lim va tarbiya texnologiyalari; oltinchi pog'ona – pedagogik ta'limdagi pedagogik texnologiyalar; ettinchi pog'ona – pedagogik texnologiyalar; sakkizinchi pog'ona – ijtimoiy, gumanitar, tashkiliy texnologiyalar; to'qqizinchi, yuqori pog'ona – insoniy texnologiyalar [8].

6. Axborot oqimlarini tizimlashtirish va ulardan maqsadli foydalanish zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonlarga taalluqli axborot oqimlari yildan yilga oshib bormoqda, tadqiqotchilar fikriga ko'ra, dunyoda chop etiladigan maxsus ta'limga oid adabiyotlardan tashqari har bir nashr, har bir gazeta va jurnal ta'limga taalluqli axborotlarga ega. Ularning oqimini aniqlash, hisoblash juda qiyin. Tadqiqotchilar zamonaviy axborot oqimlarini bir tomondan, kasb-korga oid axborotlar, ikkinchi tomondan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yaratayotgan oqimlarga bo'lishadi. Ular zamonaviy ta'limda nafaqat o'z kasbini yaxshi biladigan, yaxshi dars o'tadigan mutaxassislar, shuningdek, global dunyoni egallab olayotgan, kunora tarqalayotgan yangi-yangi axborotlarni egallagan kadrlar joy olishini mumkinligini ta'kidlashadi. [9] SHuning uchun tadqiqotchi axborot oqimlaridan maqsadli foydalanishni kompyuter savodxonligi, axborotlardan foydalanish madaniyati, axborot-kommunikatsiya kompetentligi kabilar bilan bog'laydi. Ularning har biri malakali kadrlar tayyorlash, axborotlar oqimidan zarurini tanlab olish va kasbiy faoliyatda maqsadli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish uchun muhimdir. Ha, zamonaviy oliy ta'lim bo'lajak kadrlardan mediasavodxonlikni talab qiladi.

7. Ta'limning strategik maqsadini anglashga va tahlil qilishga o'rgatish OTM xodimlariga qanchalik zarur bo'lsa, ular bilan talabalarni, bo'lg'usi malakali kadrlarni tanishtirish ham shunchalik muhimdir. Bir qarashda bu

shunchaki deklaratsiya, bayon, aslida esa OTM maqsadini anglash va tahlil qilish talabalarga zarur emas, ular bu vazifani baribir bajara olishmaydi. To'g'ri e'tiroz, ammo OTM maqsadini anglash ta'lim sub'ekti maqsadi va vazifalarini, pedtexnologiyasining xususiyatini, pirovard natijada esa kasb xususiyatlarini anglash demakdir. Bugun OTM da dars, ta'lim jarayonlarini "sub'ekt-sub'ekt" tizimiga o'tkazish, bu borada talabalarga ko'proq erkinlik berish, o'qish haftasini uch-to'rt kungacha qisqartirish taklif etilmoqda. SHunday o'zgarish amalga oshirilsa, talaba bo'sh vaqtlarida nafaqat kasbiy bilimini oshirish, shuningdek, OTM faoliyatida ishtirok etishi ham odatiy holga aylanadi.

8. Ta'lim falsafasi nazariya va amaliyotni sintezlashtirish orqali ta'lim-tarbiya modelini shakllantiradi. Maxsus adabiyotlarni o'rganish ko'rsatadiki, bunday modellarni, akademik erkinligi nuqtai nazaridan, uch guruhga klassifikatsiyalash mumkin: birinchisi, akademik erkinlik mohiyatiga singgan, butuntalim jarayonlari ijodiy, ilmiy va intellektual izlanishlardan iborat ta'lim modeli. Bunga avvalo madaniyat, san'at, badiiy ijod sohasidagi o'quv yurtlari kiradi. Ular mohiyatan akademik erkin o'quv yurtlari hisoblanadi. Ikkinchisi, davlat buyurtmalarini bajarishga, shu bilan birga, o'zi ijodiy, akademik mustaqillikda ishlovchi ta'lim modellari. Masalan, arxitektura, jurnalistika, poligrafiya, turizm sohasidagi o'quv yurtlari modeli shular jumlasidandir. Uchinchisi, o'zini o'zi mablag' bilan qoplovchi, nodavlat oliy o'quv yurtlari modeli. Ushbu modellarda nazariya va amaliyot integratsiyasi turlicha namoyon bo'ladi. Agar birinchi modelda nazariya va amaliyot uyg'unligi tabiiy hol sifatida qabul qilinsa, bu OTMning mohiyati va tub xususiyatidan kelib chiqsa, ikkinchi modelda nazariyaning amaliyotga yo'naltirilishi yoki bog'lanishi davlat buyurtmalari orqali amalga oshiriladi. Uchinchi modelda ta'lim tizimi o'zining zarurligi amaliyotga bog'liqligi bilan tasdiqlaydi. Agar u va unda tayyorlanadigan kadrlar amaliyotga zarur bo'lsa, unga aholidan buyurtmalar tushsa, demak, model to'g'ri faoliyat yuritmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Корольков А., Преображенская К., Романенко И. Педагогическая антропология в зеркале философии. – Москва: Алетея, 2017. С.12-13
2. Бакулов В., Кириллов А. Основы философии науки. –Москва: Литрес, 2022. С.23; Алимасов В. Илмий тадқиқот методологияси. – Тошкент: Фан ва та'лим, 2025. 11-126..
3. Alimasov V. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.- Toshkent: Fan va ta'lim, 2025. 45-46 b
4. Талёб Н.Н. Чёрный лебедь. Под знаком непредсказуемости. 2 –е изд. – Москва: КоЛибри, Азбука-Аттикус, 2022. С. 564-565.
5. Мандель Б.Р. Современные и традиционные технологии педагогического мастерства.- Москва: Direkt-media, 2015. С.8-12
6. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 78b
7. Суртаева Н. Педагогические технологии. 2-е изд. Учебное пособие. – Москва: Литрес, 2019. С.9-10.
8. Суртаева Н. Педагогические технологии. 2-е изд. Учебное пособие. – Москва: Литрес, 2019. С. 12.
9. Киселев Г.М. Информационные технологии в педагогическом образовании. Учебник. 3-е изд. –Москва: Дашков и К, 2020.С.7